




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-SENTABR**




DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 61-222-75-87
www.qrstat.uz**

Qoraqalpog'iston Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 3098 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 565 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,2 % i) Nukus shahriga, 325 tasi (10,5 %) Amudaryo tumaniga, 303 tasi (9,8 %) To'rtko'l tumaniga to'g'ri kelmoqda.





Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 17279,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatosh tumanida (31727,4 ming so'm), Nukus shahrida (16863,0 ming so'm) o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (8585,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 14536,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nukus shahri (33,3 %), Taxiatosh tumani (14,1 %), Amudaryo tumani (7,0 %), Qo'ng'iro't tumani (6,2 %), Beruniy tumani (4,7 %) hamda To'rtko'l tumani (4,0 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Mo'ynoq tumanida (118,1 %), Shumanay tumanida (117,4 %), Bo'zatov tumanida (113,8 %), Qorao'zak (112,4 %) tumanlarida kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tumanlar kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 277,6 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,6 % ga to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr, mlrd so'mda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr, % da




Amudaryo



Qorao'zak



Qo'ng'iro't



Beruniy




Nukus sh.




Taxiatosh



Nukus t.



Ellikqal'a




Bo'zatov



mln so'mda

ulishi, % da

**Yanvar-sentabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr*	2024- yil yanvar-sentabr
Ohaktosh, ming t.	131,1	113,3
Gaz kondensati, ming t.	48,6	39,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m	751,5	655,3

* 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoat, shahar va tumanlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14536,6 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi.




mlrd so'mda  ulushi, % da 

Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 39,8 % (51,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,8 % (5,7 %), quyi texnologiyali 51,3 % (42,4 %) ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,7 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,7 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 142,0 %) ga, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,2 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %) to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish – 2,6 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 %) ni tashkil etdi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 712,1 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,5 marta ko'paygan), 4,6 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (90,2 % ga ko'paygan), 35,4 ming tonna paxta tolasi (52,1 % ga ko'paygan), 5,5 ming tonna o'simlik yog'i (15,6 % ga kamaygan), 2382,4 ming litr aroq (2,0 % ga kamaygan), 13,4 ming tonna kalava ip (12,2 % ga kamaygan), 30,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (34,7 % ga kamaygan) hamda 55,9 ming m² gazlamalar (95,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr*	2024- yil yanvar-sentabr
Aroq, ming litr 100 % li spirt	2431,6	2382,4
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	6507,7	5490,8
Portlandsement, tonna	285477	712062
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	47200,5	30843,5
Paxta tolasi, tonna	23277,9	35403,1

* 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 39,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,6 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 5778,1 mlrd so‘mni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,0 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 760,7 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 % va ishlab chiqarish hajmi 2967,1 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 253,9 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 23,1 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 38,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3355,7 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 369,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 141,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 138,3 mlrd so‘m kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish – korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,6 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 211,4 mlrd so‘m ekani kuzatildi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2371,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr*</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>
Elektrenergiya, mln.kVt.s	3799,2	3822,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	28,3	29,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	81247,2	104958,0

* 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektrenergiya va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 100,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 103,3 % ni tashkil etdi.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,2 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr mlrd so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr % da



mln so'mda  ulushi, % da 



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	6818,7	6968,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	51051,9	65743,9
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln so'm	7216,1	9480,6

* 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 28,8 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 31,4 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2,2 % ga ko'paydi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6126,3 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,5 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,0 % ni tashkil etgan.


Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr mlrd soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, yanvar-sentabr % da



● mlrd soʻmda ● Ulushi, % da



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sishsur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 35 ta loyiha bo'yicha 411,2 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 18,5 mln AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 356 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2023- yil		2024- yil
16	Loyihalar soni, birlikda	35
15	Korxonalar soni, birlikda	34
485,9	Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	411,2
122	Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda	356